

QISHLOQ JOYLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH VA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI

Usmonov Murodbek Dusmurot o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,

“Raqamli iqtisodiyot” kafedrası assistent-stajyori

e-mail: usmonov.murodbek95@gmail.com

Tel: +998 937220855

Raximova Sevinch O'ktam qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis

instituti, Iqtisodiyot fakulteti talabasi

e-mail: sevinchrakhimova8007@gmail.com

Tel: +998 904628502

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlash istiqbollari o'rganilgan. Maqolada xizmatlar sektoridagi o'sish dinamikasi, iqtisodiy faol aholi va ish bilan bandlik ko'rsatkichlari, shuningdek ishsizlik darajasining kamayishi tizimli ravishda tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida qishloq hududlarida xizmatlar sektorini rivojlantirish uchun infratuzilma modernizatsiyasi, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, raqamli xizmatlarni kengaytirish va malakali kadrlar tayyorlash bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Maqola natijalari davlat siyosatini shakllantirish va qishloq hududlarida barqaror bandlikni ta'minlashda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish, aholi bandligi, iqtisodiy rivojlanish, ish bilan bandlik, xizmatlar sektori, qishloq infratuzilmasi, raqamli xizmatlar

Kirish

Qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi, hududlararo tafovutlarni kamaytirish va aholining farovonligini oshirishdagi eng muhim tarkibiy yo'nalishlardan biridir. So'nggi yillarda O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi, xususan, qishloq infratuzilmasini modernizatsiya qilish, tadbirkorlik faoliyatiga keng imkoniyatlar yaratish va bandlikni ta'minlash bo'yicha davlat siyosati ushbu sohaning dolzarbligini yanada oshirmoqda. Xizmatlar sektorining qishloq hududlarida yetarli darajada shakllanmagani, mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanilmagani iqtisodiy faollikni pasaytiradi va mehnat salohiyatining yetarli darajada safarbar etilmasligiga olib keladi. Shu bois mazkur sohani chuqur o'rganish bugungi kunning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish tarmoqlarining qishloq hududlarida jadal rivojlanishi mahalliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qiladi, yangi ish o'rinlarini yaratadi, migratsiya bosimini kamaytiradi va aholining ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshiradi. Jahon banki, Xalqaro mehnat tashkiloti va boshqa institutlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham xizmatlar sektori rivojlangan hududlarda barqaror bandlik ko'rsatkichlari yuqoriligi, ayollar va yoshlar bandligining yaxshilanishi hamda ijtimoiy tengsizlikning qisqarishini qayd etgan. Bu esa qishloq joylarida mazkur sohani rivojlantirishning global va mintaqaviy iqtisodiy jarayonlar bilan uzviy bog'liqligini ilmiy asoslashni zarur qiladi.

Shu nuqtai nazardan, qishloq hududlarida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlash istiqbollari o'rganish ilmiy muhimlikka ega bo'lib, ushbu yo'nalishda amaliy takliflar ishlab chiqish davlat siyosati samaradorligini oshirishga bevosita xizmat qiladi. Mazkur tadqiqot qishloq infratuzilmasi, tadbirkorlik muhitining rivoji, iqtisodiy omillar va bandlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qiladi, mavjud muammolarni aniqlaydi va ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqadi. Shuningdek, sohani rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli istiqbollarni belgilash uchun konseptual yondashuvlar taklif etiladi.

Adabiyotlar sharhi

Qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi va aholi bandligini ta'minlash masalalari bo'yicha xalqaro tadqiqotlar xizmat tarmoqlarining ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikni oshirish va bandlikni kengaytirishdagi rolini ko'rsatadi. Jumladan, "The Role of Non-Farm Employment and Service Industries in Enhancing Rural Welfare" maqolasi xizmatlar sohasi va non-farm bandlikning aholi turmush farovonligiga ijobiy ta'sirini ta'kidlab, xizmat tarmoqlarining daromad manbalarini diversifikatsiya qilish orqali kambag'allik va qishloq migratsiyasini kamaytirishiga urg'u beradi [1]. Xuddi shunday, "Foreign Experiences and Their Use in Developing the Service Sector in Rural Areas in Uzbekistan" tadqiqoti xorijiy tajribalarni sinchkovlik bilan o'rganib, qishloq hududlaridagi xizmat infratuzilmasini yaxshilash uchun global amaliyotlarni samarali joriy etish zaruratini ko'rsatadi, bu esa xizmatlar sohasining barqaror iqtisodiy o'sishdagi hissasini bildiradi [2].

Qishloq joylarida bandlik va xizmat sektori bo'yicha global iqtisodiy modellar xizmat ko'rsatish sektorining bandlikni oshirish va hududiy iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini chuqur talqin qiladi. Xizmat sektorining qishloq joylarida bandlik va ijtimoiy infratuzilma bilan bog'liqligini o'rganadigan tadqiqotlar ko'rsatadiki, xizmatlar sohasi qishloq aholisi uchun yangi ish o'rinlari yaratish, axborot infratuzilmasini mustahkamlash va iqtisodiy diversifikatsiyani rag'batlantirish orqali mahalliy iqtisodiyotni mustahkamlaydi [1].

O'zbekiston kontekstida ham xizmatlar sohasi orqali bandlikni oshirish va xizmatlar infratuzilmasini takomillashtirish borasida bir qator milliy tadqiqotlar mavjud. Taylakova qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasi orqali aholini ish bilan bandligini ta'minlash istiqbollari, raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar orqali bandlikni oshirish mexanizmlari haqida ilmiy tahlil beradi [3]. Xamdamova va boshqalar esa xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirish orqali qishloq hududlarida yangi ish o'rinlari yaratish va mahalliy iqtisodiyotni jonlantirish yo'llarini tahlil qiladi, bunda infratuzilma va tadbirkorlik salohiyati asosiy omil sifatida ko'riladi [4].

Ushbu adabiyotlar qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sektorini rivojlantirish nafaqat iqtisodiy o'sish uchun muhim bo'lsa, balki aholi bandligini ta'minlash hamda ijtimoiy barqarorlikni oshirishda strategik rol o'ynashini ilmiy asoslaydi. Milliy va xalqaro manbalarning sintezi qishloq xizmatlarining modernizatsiyasi, raqamli xizmatlar, bandlik siyosati va infratuzilma takomillashtirish bo'yicha integratsiyalashgan yondashuvlarni qo'llash zaruratini ko'rsatadi.

O'zbekiston olimlari tomonidan qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi va bandlikka ta'siri bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ushbu yo'nalishning strategik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi. Taylakova tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotda qishloq xizmatlari sektorining kengayishi aholi bandligini oshirish, ayniqsa ayollar va yoshlar o'rtasida yangi ish o'rinlari yaratishda muhim omil ekanini ilmiy asoslangan [5]. Olim xizmatlar sohasidagi iqtisodiy faollikning o'sishi qishloq infratuzilmasi bilan bevosita bog'liqligini, raqamli xizmatlar va kichik tadbirkorlikni rag'batlantirish esa hududlar kesimidagi iqtisodiy tengsizliklarni qisqartirishga yordam berishini ta'kidlaydi. Bundan tashqari, mahalliy sharoitda xizmat ko'rsatish tarmoqlarining sekin rivojlanishiga sabab bo'layotgan tashkiliy va infratuzilmaviy to'siqlar tizimli yondashuvni talab etishi ko'rsatilgan.

Xamdamova va hamkorlarining tadqiqoti esa xizmat ko'rsatish sohasining qishloq iqtisodiyotini jonlantirishdagi rolini chuqurroq ochib beradi [6]. Tadqiqotga ko'ra, xizmat sektorining kengayishi mahalliy iqtisodiy aylanishni kuchaytiradi, qishloq aholisining doimiy daromad manbalarini yaratadi hamda kambag'allikni kamaytirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Olimlar hududlarda xizmat ko'rsatish infratuzilmasini modernizatsiya qilish, tadbirkorlik uchun qulay sharoit yaratish va kredit resurslari bilan ta'minlash qishloq joylarda bandlikni oshirishning asosiy vositalari ekanini ilmiy asoslaydi. Shuningdek, tadqiqotda xizmat ko'rsatish sohasining agrosanoat klasterlari bilan integratsiyasi qishloq hududlarining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashi mumkinligi qayd etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish va aholi bandligini ta'minlash jarayonlarini kompleks o'rganish maqsadida kombinatsiyalashgan metodologik yondashuv qo'llanildi. Avvalo, mavjud nazariy

konsepsiyalar, xalqaro tajriba va milliy rivojlanish strategiyalarini qamrab oluvchi kontent tahlili orqali sohaning ilmiy-nazariy asoslari baholandi. Shuningdek, davlat statistika qo‘mitasi, iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Xalqaro mehnat tashkilotining ochiq ma‘lumotlari asosida kvantitativ tahlil amalga oshirilib, xizmatlar sektori o‘shish dinamikasi, tadbirkorlik faolligi va bandlik indikatorlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ekonometrik ko‘rsatkichlar yordamida baholandi.

Tahlil va natijalar

Tahlil va natijalar bo‘limi qishloq joylarida xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanish dinamikasi, bandlik ko‘rsatkichlari va sohaning iqtisodiy o‘shishga qo‘shayotgan hissasini empirik ma‘lumotlar asosida chuqur baholashni maqsad qiladi. Ushbu bo‘limda 2020–2024 yillar kesimida xizmatlar hajmi, jon boshiga to‘g‘ri keladigan xizmatlar ulushi, iqtisodiy faol aholi soni, bandlik darajasi va ishsizlikning qisqarish tendensiyalari kabi asosiy indikatorlar kompleks tahlil qilinadi. Mazkur statistik ma‘lumotlar sektorning qishloq hududlarida iqtisodiy faollikni kuchaytirish, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi farovonligini oshirishdagi real ta‘sirini aniqlashga imkon beradi. Shu bilan birga, o‘shish sur‘atlari orqali xizmatlar sohasining barqaror rivojlanish trendlari, strukturaviy o‘zgarishlar va bandlik siyosatini takomillashtirish bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlar yoritiladi

1-jadval.

O‘zbekistonning xizmat ko‘rsatish hamda ish bilan bandlikka oid statistik ma‘lumotlari [7]

Klassifikator	2020	2021	2022	2023	2024	2024-yil 2020-yilga nisbatan o‘shish
Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi (mlrd.so‘m, yillik)	219978.5	284388.1	366891	649806.4	827659.5	3.8
Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan bozor xizmatlari hajmi (yillik, ming so‘m)	6426.1	8145.1	10292	17845.8	22266	3.5
Iqtisodiy faol aholi soni	14797.4	14980.7	15038.9	15038.3	15097.9	1.0

(yillik, ming kishi)						
Iqtisodiyotda bandlar soni (yillik, ming kishi)	13236.4	13538.9	13706.2	14014.2	14261.9	1.1
Ishsizlar soni (yillik, ming kishi)	1561	1441.8	1332.7	1024.1	836	0.5
Xizmatlar sohasida bandlar soni (yillik, ming kishi)	255999.4	324515.6	407260.8	697728.8	880121.3	3.4

2020–2024 yillar davomida ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi sezilarli darajada oshgani kuzatiladi. Agar 2020-yilda xizmatlar hajmi 219,978 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib bu ko‘rsatkich 827,659 mlrd so‘mga yetib, 3.8 baravar o‘shishga erishdi. Ushbu dinamik o‘shish qishloq hududlarida xizmatlar sektoriga bo‘lgan talabning ortgani, infratuzilma modernizatsiyasi, raqamli xizmatlarning kengayishi hamda xususiy sektor faolligining kuchayganidan dalolat beradi. Xizmat sektorining o‘shishi bilan bir qatorda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan bozor xizmatlari hajmining 3.5 baravar oshgani hududlarda xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarining kengayganini va aholi farovonligi ortganini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkichlar xizmatlar sektorining mamlakat iqtisodiy o‘shishida strategik drayverga aylanganidan darak beradi.

Bandlik ko‘rsatkichlari ham ijobiy dinamikani namoyish etib, xizmatlar sektorining aholi bandligiga ta’siri ortib borayotganini tasdiqlaydi. 2020-yilda 13,236 ming kishi iqtisodiyotda band bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 14,261 ming kishiga yetgan, ya’ni 1.1 baravar o‘shish kuzatilgan. Xizmatlar sohasida bandlar sonining keskin ortishi ayniqsa e’tiborga molik: 2020-yilda 255,999 ming kishi bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib 880,121 ming kishiga yetib, 3.4 baravar o‘shish kuzatilgan. Bu ko‘rsatkich xizmatlar sektorining qishloq joylarda yangi ish o‘rinlari yaratishdagi asosiy omillardan biriga aylanganini ko‘rsatadi. Shuningdek, iqtisodiy faol aholi sonining barqaror o‘shishi bilan bir qatorda ishsizlarning 1.5 baravardan ko‘proq kamayishi (1561 ming kishidan 836 ming kishigacha) mehnat bozorining tiklanishi va xizmatlar sektorining ishsizlik darajasini sezilarli kamaytirayotganidan darak beradi.

Umuman olganda, jadvaldagi ko‘rsatkichlar qishloq joylarda xizmatlar sohasining rivojlanishi aholi bandligini oshirish, iqtisodiy faollikni kuchaytirish va ijtimoiy farovonlikni mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilayotganini

ishonchli ravishda ko'rsatadi. Xizmatlar hajmi, jon boshiga xizmatlar ulushi va xizmatlar sektorida bandlarning o'sishi tobora kuchayib borayotgan xizmatlar iqtisodiyotiga o'tish jarayonini tasdiqlaydi. Xizmatlar sektorining yuqori o'sish sur'atlari qishloq joylarda iqtisodiy diversifikatsiya, mikroyirik bizneslarning kengayishi, infratuzilmaning yaxshilanishi va mahalliy aholi uchun barqaror daromad manbalarining shakllanishi bilan izohlanadi. Ushbu dinamik o'zgarishlar kelgusida qishloq hududlarida xizmatlar sektorini yanada chuqur modernizatsiya qilish va bandlik siyosatini takomillashtirish zarurligini ham belgilaydi.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2020–2024 yillar davomida qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasining jadal rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarning chuqurlashuviga olib kelgan. Xizmatlar hajmining qariyb to'rt baravar oshishi, jon boshiga to'g'ri keladigan xizmatlar ulushining sezilarli kengayishi hamda xizmatlar sektorida bandlar sonining barqaror ortib borishi qishloq hududlarining iqtisodiy faollashuviga zamin yaratdi. Ushbu jarayon xizmat ko'rsatish infratuzilmasining modernizatsiyasi, mikrotadbirkorlikka berilgan imkoniyatlar va aholi ehtiyojlarining o'zgarib borayotganiga moslashuvchan yondashuvlar bilan bevosita bog'liqdir.

Shuningdek, xizmatlar sektorining kengayishi mehnat bozori ko'rsatkichlariga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ishsizlik darajasining 1561 ming kishidan 836 ming kishigacha qisqarishi xizmatlar sektorida paydo bo'lgan yangi ish o'rinlarining salmoqli hissasini aks ettiradi. Xizmatlar tarmog'ida bandlikning 3.4 baravar oshgani ayniqsa aholi bandligini ta'minlashda ushbu sohaning yetakchi sektor sifatida shakllanayotganini tasdiqlaydi. Bu esa qishloq hududlarida mehnat faolligini rag'batlantirishga, iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishga va mahalliy aholining barqaror daromad manbalariga ega bo'lishiga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, qishloq joylarda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi iqtisodiy tizimning raqobatbardoshligini oshiruvchi, hududiy nomutanosibliklarni kamaytiruvchi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi strategik yo'nalish ekanligi ma'lum bo'ldi. Kelgusida xizmatlar tarmoqlarini yanada kengaytirish, raqamli platformalarga o'tishni jadallashtirish, infratuzilmani takomillashtirish hamda tadbirkorlik subyektlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash bu jarayonning barqarorligini yanada kuchaytirishi mumkin. Ushbu omillar qishloq hududlarining iqtisodiy transformatsiyasini tezlashtirib, xizmatlar iqtisodiyotiga asoslangan rivojlanish modelini shakllantirishga xizmat qiladi.

Olib borilgan tahlil natijasida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, qishloq hududlarida xizmatlar infratuzilmasini modernizatsiya qilish lozim. transport, logistika, kommunikatsiya va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish orqali xizmatlar sektoriga kirish imkoniyatlarini kengaytirish.

Ikkinchidan, xizmatlar sohasida mikrotadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash: soliq imtiyozlari, imtiyozli kreditlar va grant dasturlari orqali yoshlar va ayollar bandligini oshirish.

Uchinchidan, raqamli xizmatlarni kengaytirish: elektron savdo, masofaviy xizmatlar, agroservis platformalarini joriy qilish orqali qishloq aholisi uchun yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratish.

To‘rtinchidan, kasbiy tayyorlov va qayta tayyorlash dasturlarini kuchaytirish: xizmatlar sektoriga mos malakali kadrlar tayyorlash orqali mehnat bozori talabini qondirish va ishsizlikni yanada kamaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar

- [1] S. Muratov, E. Burova, S. Suloeva, S. Hasanov, K. Pardaev, and B. Isroilov, “The Role of Non-Farm Employment and Service Industries in Enhancing Rural Welfare,” *Int. J. Technol.*, vol. 16, no. 3, pp. 1042–1059, 2025. <https://doaj.org/article/693c170a987e48fbb2839b3fcf2fad1a>
- [2] N. U. Musayeva, “Foreign Experiences and Their Use in Developing the Service Sector in Rural Areas in Uzbekistan,” *Eur. J. Econ., Finance Bus. Dev.*, vol. 3, no. 4, pp. 68–72, 2025. <https://europeanscience.org/index.php/2/article/view/1337>
- [3] D. Taylakova, “Qishloq joylarda xizmat ko‘rsatish sohasi orqali aholini ish bilan bandligini ta‘minlash istiqbollari,” *Green Economy and Development*, vol. 1, no. 11-12, 2023. DOI: https://doi.org/10.55439/GED/vol1_iss11-12/a264.
- [4] N. Xamdanova, K. Boyjigitov, and A. Baxriddinov, “Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish orqali qishloq joylarida aholi bandligini oshirish,” *Green Economy and Development*, 2025. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15747259>.
- [5] D. Taylakova, “Qishloq joylarda xizmat ko‘rsatish sohasi orqali aholini ish bilan bandligini ta‘minlash istiqbollari,” *Green Economy and Development*, vol. 1, no. 11–12, 2023. DOI: https://doi.org/10.55439/GED/vol1_iss11-12/a264
- [6] N. Xamdanova, K. Boyjigitov, and A. Baxriddinov, “Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish orqali qishloq joylarida aholi bandligini oshirish,” *Green Economy and Development*, 2025. DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15747259>
- [7] <https://stat.uz/uz/>
- [8] <https://mfa.uz/>
- [9] <https://www.worldbank.org/en/country/uzbekistan>
- [10] <https://www.ilo.org/asia/countries/uzbekistan/lang--en/index.htm>
- [11] <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED>
- [12] <https://europeanscience.org/index.php>